TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

Abdullayev Abduraxmon – GulDU, t.f n., dotsent
Abdullayev Baxtiyor Abduraxmonovich – GulDPI, katta o‘qituvchi
Yoqubov Muxammadqodir, Otaboyeva O‘g‘iloy - GulDPI talabalari

Annotasiya. Maqolada olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ilmiy asoslarga ko‘ra muammoli ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini izohlanilgan.

Kalit so‘zlar. Faol o‘qitish metodi, muammoli vaziyat, muammoli ta’lim, muammoli o‘qitish.

Pedagog-didaktik olimlar yillar davomida ta’lim jarayonini tashkil etishda Nega o‘qitamiz? Nimani o‘qitamiz? Qanday o‘qitamiz? kabi savollariga javob izlash barorida “Qanday qilib samarali va natijali o‘qitish mumkin? – degan savolga hali ham javob qidirishmoqda va bu mavzularda hamon ilmiy tadqiqot ishlari jadal olib borilmoqa. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020 yil 30-oktabr kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida mamlakatda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha maktab o‘quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika qo‘llash zarurligini ta’kidlaganligi ham bejiz emas. “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”- dedi Shavkat Mirziyoyev [Sh. Mirziyoyev: 1].

Keng axborot oqimi sharoitida, mamlakatimiz pedagog-olimlari tomonidan hozirgi kunda zamon talabiga ko‘ra, ta’lim jarayonida interfaol o‘qitish metodlardan foydalangan holda ta’lim berish samaradorligini ko‘tarishga oid ko‘plab pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot ishlarida o‘qitishning rivojlantiruvchi, ta’limiy va tarbiyaviy funksiyalariga e’tibor qaratgan holda o‘qitishga qo‘yilgan maqsadlarga erishishning optimal va samara beruvchi yo‘llari o‘rganilgan. Jumladan, kichik yoshdagi o‘quvchilar loyiha ishlarini bajarish jarayonida, ularda fanga oid kompetensiyalar shakllanishi sinergetik (o‘zaro hamkorlik) tarzda amalga oshish shakli [Sangirova Z.B.: 2], o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirish orqali ularda tadqiqotchlik ko‘nikmalarini rivojlantirish [Suyarov K.T.: 3], tayanch kompetensiyalar asosida o‘quvchilarda muloqat qilish, hamkorlikda ishlash, mustaqil qaror qabul qilish, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish [Narziyeva N.N.: 4], umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanidan to‘garak mashg‘ulotlarida muqobil energiya manbalari qurilmalaridan vositasi sifatida foydalanish orqali o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish shaklli [Hamdamova N.M.: 5] o‘rganilgan.

Bizning fikrimizcha muammoli o‘qitishni maqsadli qo‘llashning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari sifatida: o‘quv materialining mazmunida sabab-oqibatli aloqadorlik o‘quvchida fanga oid nazariya, qonun, tushunchalarni shakllantirishga

yo‘nalganligi; o‘quvchilarni yangi mavzuni muammoli o‘qitishga tayyorlash; o‘qituvchi dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltira olishi; o‘qituvchi turli faol o‘qitish metodlarni bilishi va uni qo‘llay olishi lozim.

Mamlakatimizda, xorijda hamda hamdo‘stlik mamlakatlarning ko‘plab olimlari, fan o‘qituvchilari va metodistlar o‘quv jarayonida o‘quvchilarning bilim olish faolligini faollashtirish optimal yo‘llarini izlash bilan shug‘ullanishmoqda. Biroq o‘quvchilarning o‘rganish faoliyatini faollashtirish masalasi bo‘yicha zamon talabiga mos uslubiy yo‘nalishlarni rivojlantirish zaruriyatlari mavjud. Bular: *birinchidan*, har bir o‘quv fan yo‘nalishlarda fan xususiatlatlarida kelib chiqib nazariy asoslarini ishlab chiqish, *ikkinchidan*, ta’limda paydo bo‘layotgan konsepsiyalar o‘qitish jarayonining ayrim jihatlari bo‘yicha bir-biri bilan bog‘lanmagan, *uchinchidan*, turli konsepsiyalar pedagogika bilan turdosh fanlarga aloqadorlikning turli darajasiga ega hamda eng asosiysi, bular nazariy xulosalar ob’yektiv ekanligining asosiy mezoni sifatidagi maktabning ilg‘or tajribasi va amaliyoti bilan zaif aloqaga ega ekanligidir.

Muammoli o‘qitish nazariyasini yaratish an’anaviy didaktika tamoyillarini va qoidalarini shunchaki takomillashtirishni anglatmaydi. U o‘qitish jarayoni to‘g‘risidagi shakllangan bilimlar doirasidan chiqish va o‘quvchilarning o‘rganish mustaqilligini shakllantirishning gnoseologik, sotsiologik hamda psixologik qonuniyatlarini aniqlash maqsadida muammoli o‘qitishning uslubiy asoslarini nazariy tadqiq qilishni taqozo etadi.

Muammoli o‘qitish g‘oyalari hozirgacha asosan empirik xulosalarga tayanib kelmoqda. Bu esa amaliyot rivojlanishini to‘xtatib turgan vaqtda, mashhur avstiyalik fizik L.Bolsmanning mashhur iborasini qo‘llagan holda, “Yaxshi nazariyadan amaliyroq narsa yo‘q” deb aytish mumkin. Faqat nazariyagina umumiy g‘oyalar va qonuniyatlarni ajratib ko‘rsatish, faoliyatning aniq tizimlarini modellashtirish, o‘qitishning yangi turi tuzilmasini hamda uning ijodiy faoliyatga yaqinligi darajasini ochib ko‘rsatish imkoniyatini beradi [Махмутов М.И.: 6].

Muammoli ta’lim muammoli vaziyatni yaratishdan boshlanadi. Biz biron harakatni amalga oshirishimizda, aksariyat hollarda tayyor modellardan foydalanamiz, ya’ni izlanmaymiz. Ammo, muammoli vaziyatlarda shaxsning izlanish faolligi ishga tushadi va maqsadga erishishning yangi modellari qidiriladi. Demak, muammoli vaziyat – intellektual qiyinchilikning ruhiy holati bo‘lib, u shaxsda mavjud bo‘lgan bilimlar yordamida tanish yo‘li bilan muammodagi dalillarni tushuntirib bera olmasa, yangi harakat usulini topishi kerak bo‘lgan vaziyatdir. Shuningdek, muammoli o‘qitishning yana bir juda muhim jihati bu –egallanayotgan bilimlar mustaqilligini ta’minlaydi, chunki bu bilimlar mustaqil faoliyat jarayonida egallanadi.

Nazariy va amaliy pedagogik vazifalarni hal qilish uchun yaratiladigan muammoli vaziyatlar o‘quvchilar tomonidan bunday vazifalarni hal qilishga asoslanadigan muammoli o‘qitishning didaktik asoslari ushbu tushunchaning mazmuni va mohiyati bilan belgilanadi. Muammoli o‘qitish o‘quvchilarning aqliy salohiyatlari, mustaqil ijodiy faoliyati, fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Ammo umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotiga muammoli o‘qitishning joriy etish murakkabligi muammoli vaziyat ko‘rinishidagi o‘quv materialani tayorlash

metodikasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, mazkur yo'nalishda maqsadli tadqiqot ishlarini olib borishni taqoza qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020 yil 30 oktabr kuni mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha olib borilgan videoselektor yig'ilishi. https://daryo.uz/2020/10/30

2. Sangirova Z.B. Umumta'lim maktablarida STEM yondashuv asosida o'quv-loyiha ishlarini tashkil etish metodikasi. Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori dissertasiyasi. – Chirchiq.ChDPU, – 2022. – 117 b.

3. Suyarov K.T. O'quvchilarda o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari // Xalq ta'limi. – 2018. - № 6. – Б. 27-32.

4. Narziyeva N.N. Umumta'lim maktab o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish. Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori diss. avtoref. – Samarqand, SamDU, – 2019. – 21 b.

5. Hamdamova N.M. O'quvchilarning texnik ijodkorligini muqobil energiya manbalari qurilmalari vositasida rivojlantirish. Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori dis. avtoreferati. Buxora. BDPU, 2021. – 48 b.

6. Махмутов М.И. Избранные труды. Том 1. Проблемное обучение: Основные вопросы теории.–Казань. Магариф-Выкыт. 2016. – 423с.